

Sh. Usmonov

Qarshi davlat universiteti

*Yangi o'zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasи
mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Maqolada mazkur kategoriyaga nisbatan turli shakldagi terminlar qo'llangani e'tiborga molik. Xususan, o'zbek adabiyotshunosligida mazkur kategoriyaning "insonning badiiy konsepsiysi", "shaxs konsepsiysi", "inson konsepsiysi" kabi turli shakldagi terminlarini uchratish mumkin. Zamonaviy o'zbek she'riyati mumtoz va yangi o'zbek she'riyatining eng yaxshi an'analarini davom ettirgani holda jahon adabiyoti buloqlaridan ham suv ichyapti.

Kalit so'zlar: inson konsepsiysi, traditsionalistik, tarixiy tiplari, mifopoetik, badiiy tafakkur.

Abstract: It is noteworthy that the article uses terms of different forms in relation to this category. In particular, in Uzbek literary studies, one can find various terms of this category, such as "artistic concept of a person", "personal concept", "human concept". Modern Uzbek poetry continues the best traditions of classic and new Uzbek poetry, drinking water from the springs of world literature.

Key words: human concept, traditionalist, historical types, mythopoetic, artistic thinking.

Аннотация: Примечательно, что в статье используются термины разной формы по отношению к данной категории. В частности, в узбекском литературоведении можно встретить различные термины этой категории, такие как «художественная концепция человека», «личностная концепция», «человеческая концепция». Современная узбекская поэзия продолжает лучшие традиции классической и новой узбекской поэзии, пьет воду из источников мировой литературы.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Ключевые слова: человеческая концепция, традиционалист, исторические типы, мифопоэтика, художественное мышление.

Har qanday ijodkor badiiy tafakkurining shakllanishi uchun uchun diaxron va sinxron ahamiyatga ega bo‘ladi. O‘zi tominidan yaratilajak badiiy asarning qanday darajada bo‘lishi ijodkorda shakllangan badiiy tafakkur va uning iste’dodiga bog‘liq bo‘ladi. Ular o‘rtasida vorisiylik, uzviylik davom etib kelayotir. Zamonaviy o‘zbek she’riyati mumtoz va yangi o‘zbek she’riyatining eng yaxshi an’analarini davom ettirgani holda jahon adabiyoti buloqlaridan ham suv ichyapti.

Mazkur ta’sirlar bugungina boshlangan jarayon emas, ijodkorning badiiy tafakkuriga ta’sir etuvchi bir necha omillar bo‘lishi mumkin. Jumladan, quyida keltirilgan omillarni har qanday ijodkorning badiiy tafakkuriga ta’sir etuvchi prinsiplar sifatida ko‘rsatish mumkin:

-mavjud sotsial, iqtisodiy-siyosiy muhit va unda sodir bo‘layotgan hodisalar;

-o‘z milliy koloritidan kelib chiqib o‘rganilgan manbalar, yozma va og‘zaki ijod namunalari;

-tarjima qilingan asarlar ta’sirida hosil bo‘lgan tafakkur.

Shu o‘rinda mazkur kategoriyaga nisbatan turli shakldagi terminlar qo‘llangani e’tiborga molik. Xususan, o‘zbek adabiyotshunosligida mazkur kategoriyaning “insonning badiiy konsepsiysi”, “shaxs konsepsiysi”, “inson konsepsiysi” kabi turli shakldagi terminlarini uchratish mumkin. Izohli lug‘atlarga ko‘ra «inson» va «odam» so‘zлari ma’no jihatdan keskin farq qilmasada, ular iste’molda farqlanadi. Ya’ni «inson» ko‘p hollarda «shaxs» so‘ziga sinonim qo‘yiladiki, bu uni ijtimoiy-axloqiy hodisa sifatida gavdalantiradi. Tabiiy fanlarga oid adabiyotlarda esa «odam» so‘zini qo‘llash an’anaga aylangan. Bunday adabiyotlarda biz «odam»ni shaxs sifatida emas, biologik mavjudot sifatida tushunishga odatlanganmiz. Bu mulohazalarimizni tilshunoslik nuqtai nazaridan aniq dalillay olmasakda, mazkur tadqiqotda inson – shaxs, odam – biologik mavjudot sifatida talqin etilganini alohida qayd etishga zarurat sezamiz. Zero, ishda “inson konsepsiysi”, “insonning badiiy konsepsiysi” yohud “shaxs konsepsiysi”

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

terminlari ayni bir ma’noni anglatadi.

Badiiy tafakkur inson tafakkuri bilan o‘zaro aloqadorlikda rivojlanadi. Ya’ni insonning tarix sahnasidagi ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy taraqqiyoti to‘g‘ridan-to‘g‘ri badiiy adabiyotga ko‘chib o‘tadi. Bizning muayyan ijtimoiy shart-sharoitida shakllangan dunyoqarashimiz, borliqdagi maqomimizni qanday belgilashimiz shu davr paradigmasini shakllantiradi: Insoniyat tarixi – paradigmalar almashuvildir. Inson, o‘z oldiga qo‘ygan oliv maqsadi qadrsizlanayotganini sezgach, yangi maqsadlarini ko‘zlaydi va unga qarab intiladi. Shakllangan yangi paradigma esa konseptual ravishda, avvalo, badiiy adabiyotda bo‘y ko‘rsatadi. Demak, biz «inson kim?» savoliga javob izlash asnosida butun tarixni davrlashtirish bilan birga, adabiyotning tadrijiy taraqqiyot yo‘lini ham yaxlit xaritada ko‘rshimiz mumkin bo‘ladi.

Dunyodagi yetakchi adabiyotshunoslar fikriga ko‘ra, badiiy tafakkurning eng umumiyligi va barqaror uchta asosiy turi mavjud:

- 1) arxaik yoki mifopoetik;
- 2) traditsionalistik yoki normativ;
- 3) individual-ijodiy yoki tarixiy tiplari.

Badiiy tafakkurning arxaik (mifopoetik) bosqichi paleolit davridan boshlab antik Yunoniston-da miloddan avvalgi VII–VI asrlar, Sharqda esa milodiy I asrgacha davom etadi. “Badiiy tafakkur hamisha yangilanishga mahkum. Bu narsa unig tinimsiz o‘zgarib turuvchi o‘zgarmas qonuniyati, yorug‘ peshonasiga bitilgan ustuvor xususiyati. Bu narsa badiiy ongdagi, ijtimoiy-siyosiy qarashlardagi stereotiplarni, qotishga moyillashgan nuqtati nazarlarni sindirish evaziga hosil bo‘ladi”[1.B.4]

Traditsionalizm (normativ poetika) bosqichi Yevropada miloddan avvalgi avvalgi VI – V asrlardan XVIII asr o‘rtalarigacha, Sharqda esa milodiy I asrdan XIX asr oxiri – XX asr boshlarigacha davom etib, eng uzoq muddat — ikki yarim ming yillik davrni qamrab oladi.

Individual-ijodiy bosqich Yevropada XVIII asr o‘rtalaridan, Sharqda XIX asr oxiri – XX asr avvalidan boshlanib, hozirga qadar davom etmoqda.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Biz yuqorida sanab o'tgan tarixiy bosqichlar va badiiy tafakkur bosqichlarining bu qadar uyg'un kelishi, albatta, tasodif emas. Sababi, adabiyotshunoslik muayyan davr adabiyotini o'rganar ekan, avvalo, shu davr ijtimoiy-tarixiy sharoitini hisobga oladi. Chunki har bir davr adabiyotining rivojlanish darajasi, undagi turfa adabiy hodisalar ko'p jihatdan ijtimoiy-tarixiy sharoit bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy-tarixiy sharoit deganda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy holati tushuniladiki, bular bari badiiy adabiyot taraqqiyotining tashqi omili sanaladi. Shunday ekan, inson konsepsiysi bir vaqtida ham adabiy-falsafiy, ham ijtimoiy kategoriyadir.

Badiiy tafakkurning mifopoetik bosqichga xos asosiy xususiyat sifatida sinkretiklik ko'rsatiladi. Sinkretizm yunoncha «farqlamaslik» so'zidan olingan bo'lib, butun borliqni yaxlit tushunish demakdik. Sinkretizm – “inson tafakkurining hali bo'linmagan holati”. Ya'ni tabiat bilan insonni, so'z bilan u anglatgan narsani, «men» bilan «o'zga»ni, hayotiy amal bilan san'atni farqlamasdan qabul qiladigan, hali abstrakt fikrlash va refleksi-ya (o'zini anglash)ga qobil bo'lмаган ongga xos tafakkur nazarda tutiladi.

Arxaik bosqichda san'at ham bir butun hodisa bo'lган. Bu davrda san'atning turlari, umuman, ularni turlarga ajratuvchi chegara mavjud emasdi. Shu ma'noda, san'atshunoslar sinkretizm istilohini san'atning qadimiy, hali turlarga xos spetsifik xususiyatlar bo'y ko'rsatmagan shakliga nisbatan ham qo'llaydilar

Qadimgi odamlarning diniy rituallari sinkretizmga yorqin misol bo'la oladi. Bunday rituallarda odamlar bir vaqtning o'zida qo'shiq kuylashi (tabiatga murojaat qilib omonlik yoki yaxshi o'lja so'rashi), raqsga tushishi, nog'ora chali yo sahna elementlarini ko'rsatishi mumkin edi. E'tiborli jihat, rituallardagi san'at hodisalarining biri ikkinchisidan farqlanmagan. Boshqacha aytganda, bu “san'at” shu rituallardagina mavjud bo'lган yaxlit marosimning muhim elementlari hisoblangan.

Arxaik bosqichda “inson tafakkurining hali bo'linmagan”ligi, paleolit davrining shart-sharoitlari bilan bevosita bog'liq. Zero yuqorida ham qayt etganimizdek, bu davrda inson ongi serqirra ijtimoiy munosabatlar asosida emas,

Ta'limning zamonaliv transformatsiyasi

tabiatning tabiiy hodisalari, tabiiy shart-sharoitlari ta'sirida rivojlangan. Shu omil tufayli, inson o'zini tabiatning ajralmas bir qismi sifatida his qila olardi, xolos. Biz buni eng qadimgi xalq og'zaki ijodi namunalari misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Adabiyotshunos olim J.Eshonqulning fikricha: "Mif birinchi ijodiy jarayon, birinchi falsafiy, jo'g'rofiy, zoologik va astronomik asardir. Unda ibtidoiy odamning barcha ojiszliklari, kuchli jihatlari namoyon bo'lgan" [2.B.5] Darhaqiqat, qadimgi insonlar miflarni qasddan yaratmaganlar. Miflar odamlarning kundalik hayotidagi urf-odatlari va rituallari doirasida o'z-o'zidan, mavjud udumlarning bayoni sifatida paydo bo'lgan.

Ibtidoiy odamlar uchun mif olamni bilishning asosiy vositasi hisoblangan. Shu ma'noda miflar qadimgi odamlarning fikirlash tarzi, dunyoqarashi haqida keng ma'lumot bera oladi. Inson o'zini tabiatning bir qismi sifatida tasavvur qilgan kezlarda atrofidagi narsalarga ham o'zidagi sifatlardan kelib chiqib baho bergan. Shu sababli u tabiatdagi narsalarga insonga xos xususiyatlarni ko'chigan. Ya'ni qadimgi odamning tasavvuricha, atrofdagi narsalar ham inson kabi fikrlaydi, inson kabi hayot kechiradi. Mifning fetishizm, animizm va totemizm kabi turlari ham ana shu tasavvurlarning mahsulidir.

Traditsionalizm badiiy tafakkur taraqqiyotida nisbatan eng uzoq muddat, qariyb, ikki yarim ming yil hukm surgan bosqichdir. Mazkur bosqichning bu qadar uzoq muddat davom etgani asrlar davomida ijtimoiy shart-sharoitning deyarli o'zgarmagani, feodal tuzimning barqarorligi, mustahkam diniy e'tiqod, jamiyatlararo kommunikatsiyaning sustligi, ilf-fan inqilobining "kechikkani" kabi qator omillar bilan bog'lanadi. Ta'kidlash zarurki, traditsionalizmning ikki yarim ming yillik umri dunyo madaniyati tarixidagi umumiylis hisob bo'lib, u alohida olingan sivilizatsiyalarda bu qadar uzoq yashamagan. Ijtimoiy shart-sharoitning o'zgarishi, yangi paradigma va inson konsepsiyasining shakllanishiga qarab traditsionalizm G'arb-u Sharqda turli davrlarda, turlicha vaqt chegaralarida dominantlik qilgan.

Mifopoetik bosqichda sinkretizm muhim ahamiyat kasb etgan bo'lsa, traditsionalizmga kelib san'at turlari o'zidagi spetsifik jihatlarni yaqqol ko'rsata

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

boshladi. Jumladan, adabiyot ham alohida soha sifatida shakllandi.

Traditsionalizmni farqlovchi eng muhim jihat ijodiy jarayonda an'anaviylikning ustun turishidir. Xususan, Sharq mumtoz adabiyotida ijodkor mavzuni yoritishda imkon qadar ijtimoiylikdan qochadi, ifodada zamon va makon uyg'unligini ta'minlamaydi, qolaversa, talqinda o'ziga xoslikka intilmaydi. Ya'ni bu davr ijodkorlari o'zining shaxsiy kechinmalarini, an'anadan keskin farq qiluvchi fikr va g'oyalarini ilgari surmagan. Ya'ni, "inson tafakkuri, ijodiy tasavvuriga xos bo'lgan turg'un «sxema»lar, konstruksiyalar, qoliqlar tushunilib, ulaming izlarini eng qadimgi davrlardan boshlab to hozirgi adabiyotgacha ko'rish mumkin bo'ladi. Arxetip konstruksiya va sxemalardan o'ziga xos «syujet va syujet holatlari» jamg'armasi hosil bo'ladiki, ular asardan asarga, davrdan davrga ko'chib yuradi. Masalan, «bulbul - gul - chaqirtikanak»[3.B.74] kabilar. Xuddi shu omillar Sharq mumtoz adabiyotida muallif shaxsiyatiga ham parda tortadi. Ba'zan muallif yozgan asariga o'z imzosini ham qo'yagan. Zero, olamni faqat diniy-axloqiy mezonlar asosida tushungan inson, tabiiy ravishda, hayotini qat'iy an'analar asosiga qurban. Bu davr estetik qarashlarining birlamchi haqiqati sifatida dunyoning foniyligi aytilgan, san'atkor uchun chinakam go'zallik esa olam va odamning botini hisoblangan.

Mumtoz adabiyotda estetik tasavvurlar axloqdan ajratilmagan. Zero mumtoz mutafakkirlar nazdida insonning asl go'zalligi ma'naviy go'zallikdir. Shu kabi omillar sabab bu davrda insonning realistik tasviri badiiy qiymatga ega emasdi. Ya'ni, mumtoz ijodkor qahramonlarni real voqelikdagi xatti-harakatlari vositasida emas, balki mutlaq ideal tushunchalar orqali tasvirlaydi. Ya'ni qahramonda eng go'zal islomiy sifatlar (taqvo, ilm, odob,adolat, ma'rifat va b.) mavjudligini ta'rifda aytilganining o'zi yetarli hisoblangan (ya'ni, masalan, taqvoli odam deyilishining o'zida qiyofa haqidagi an'anaviy tasavvur ham bor). Shu sababli ham shoir qahramondagi shunday sifatlar ta'rifiga ko'proq urg'u beradi: sifat qay darajada mukammal va original ta'riflansa, shu darajada individual qiyofa hosil bo'ladi. Natijada, yerdan butunlay uzilgan, Sharqning ideal g'oya va maqsadlariga yo'g'rilgan qahramon yaratiladi. Shu o'rinda Navoiy insonning

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

borliq va uning mavjudotlari orasidagi o‘rni va ahamiyatini teran idrok etib, odamni “koyinot zubdasi (biror narsaning yaxshi qismi, sarasi, qaymog‘i, yaxshi natijasi, xullasi)”[4.B.258] degan metaforik ibora bilan ta’riflaydi. Hazrat Navoiyning ta’rifi Sharq mumtoz adabiyotidagi komil inson konsepsiyasiga ham mos ekanini qayd etmoq zarur.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, badiiy tafakkurdagi traditsionalizm Sharqda G‘arbgan nisbatan ancha uzoq muddat davom etadi. Xususan, milliy adabiyotimizda mumtoz adabiyot an’analari XX asr boshlarigacha davom etgani ma’lum. Bu vaqtga kelib ma’rifatchilik, sentimentalizm, romantizm kabi bosqichlardan o‘tib kelgan G‘arb badiiy tafakkuri realizm va modernizm ta’sirida sayqal topayotgandi. Bizda mazkur bosqichlarning ancha kech boshlangani, balki, qurama shaklda, bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘lgani ijtimoiy shart-sharoit va kommunikatsiya bilan bog‘liq. Zero, Turkistonda XX asrning boshlariga kelibgina an’anaviy badiiy tafakkur qobig‘idan chiqish imkonini beruvchi ijtimoiy-shart sharoit vujudga keldi.

XX asr boshlarida ijtimoiy-madaniy hayotimizda sodir bo‘lgan tub burilishlar, xususan, davriy nashrlarning paydo bo‘lishi, jadidlar harakatining yuzaga kelishi, xorijiy adabiy oqimlarning ta’siri natijasida birin ketin realistik asarlar dunyo yuzini ko‘ra boshladi. Professor Ulug‘bek Hamdam XX asr avvalida badiiy tafakkurda kechgan yangilanishning bosh omilini shunday izohlaydi: “XX asr boshida Turkistonda yuzaga kelgan sharoitda shaxs maqomi o‘zgardi, ijtimoiy faollandishgan yangi inson shakllandi. Yangi insonning qalb tebranishlarini aks ettirish talabi she’riyatdan shunga mos o‘zgarishlarni-yangilanishni taqozo eti. Yangi inosn shaxsiy turmushi va jamiyat hayotini o‘zgartirishga o‘zini qodir deb bildi, konkret ijtimoiy maqsad bilan, ertangi istiqbol haqid ao‘ylab, amallarini shunga moslab yashay boshladi, ya’ni ijtimoiy faollandishdi”[5.B.9]. Haqiqatan ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan keskin o‘zgarishlar shu ijtimoiylikning bir bo‘lagi – ijodkor shaxsini chetlab o‘tmadi. Endi ijodkorning inson haqidagi, uning olamdagи o‘rni va maqomi haqidagi tasavvurlari o‘zgardi. Shunga mos ravishda, adabiyotda olam va odam munosabatlari haqidagi badiiy konsepsiya (inson konsepsiysi) yangilanishi natijasida individual-ijodiy badiiy tafakkur bosqichiga

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

o‘tildi.

Individual-ijodiy badiiy tafakkur bosqichning asosiy farqlovchi xususiyati realistik ifodadir. An'anaviy qoliplar ta’siridan chiqa olgan ijodkor olamni individual tarzda badiiy mushohada qila boshladi. Adabiyot voqelikka, ijtimoiy hayotga yuzlandi. Badiiy mushohada obekti san’atkor ko‘nglidan chiqib, voqelikka ko‘chib o‘tdi. Bu esa tabiiy ravishda badiiy obrazning, tasvirlanayotgan voqeahodisalarning realistik ifodasini talab qilardi. Shu ma’noda, biz Cho‘lponning “Qurban jaholat”, “Do‘xtir Muhammadyor”, Qodiriyning “Juvonboz”, “Uloqda” kabi hikoyalari, Hamzaning “Yangi saodat”, Ayniyning “Buxoro jallodlari” qissalari, Qodiriyning “O‘tgan kunlar”, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanlariga nafaqat o‘zbek nasrining tamal toshi, balki adabiyotimizda zamonaviy inson konsepsiyasining asosi sifatida qarashimiz mumkin.

Individual-ijodiy badiiy tafakkur zamonaviy o‘zbek adabiyoti deb ataluvchi katta bir bosqichni qamrab olgan bo‘sa-da, bu bosqichning o‘zi ham bir necha davrlarga ajralishini unutmasligimiz darkor. Zero, XX hamda XXI asrga xos ko‘plab umumiy qonuniyatlar asosida shakllangan individual-ijodiy badiiy tafakkur, shu davrlarning turli ijtimoiy shart-sharoitida vujudga kelgan inson konsepsiysi ta’sirida vujudga kelgan ichki bosqichlarga ham ega.

Jahon she’riyatini kuzatar va uni hozirgi davr o‘zbek she’riyati bilan muqoyasa qilar ekanmiz, zamonaviy o‘zbek poeziyasida ham yuksak badiiy salohiyatga ega bo‘lgan, zabardast ijodkorlar bor ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Mazkur zamon she’riyati o‘z-o‘zidan kelib chiqmaganligi, uning o‘ziga xos taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tganligiga guvoh bo‘lish mumkin.

Albatta, bugungi davr o‘zbek she’riyatini, qaysidir ma’noda, mumtoz va undan keyingi davr lirkasi bilan solishtirib bo‘lmaydi, chunki yangi davr o‘zbek she’riyati shakl-shamoyili bilan ham, ifoda yo‘sirlari bilan ham, tasvir obektining o‘zgachaligi bilan ham farqlanib turadi. Kezi kelganda yangi zamon poeziyasini o‘tmish davri she’riyatidan butunlay uzilib qolgan deb bo‘lmaydi. XX asr boshlarida she’riyatimizga keng qo‘llanila boshlagan barmoq vazni, sarbast va oq she’r kabi shakllar qo‘llanila boshladi. Yuqorida nomlari zikr qilingan shakllar

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

yozma adabiyotimiz uchun bir qadar ommaviy tatbiq etilish nuqtayi nazaridan yangilik kasb etgan bo'lsa-da, xalq og'zaki ijodida eski turkiy til davriga mansub Ahmad Yassaviy she'rlari ham aynan shu vaznda yaratilganligi sir emas. Zamonaviy poeziyamizni sinchiklab o'rganish jarayonida butunlay o'zgacha she'riyat emasligini kuzatish mumkin. Shakllardagi to'lqinlanishlar, ritmik deformatsiyalarning o'zgarib turishi keng tus olib borayotgan bo'lsa-da, ammo u milliy o'zanidan butunlay chetga chiqib ketgan she'riyat emas. Keyingi davr she'riyatiga tarjimalarning ta'sirini ham ko'plab kuzatish mumkin. Ma'lum bir ijodkorning asarlari tarjima qilinar ekan, u, albatta, o'sha ijodkor she'iyatidan ham ta'sirlanmay qolmaydi.

Umuman, adabiyotda badiiy obrazni shakllantirish maqsadida turli xil usullardan foydalanish mumkin. Bunday omillardan eng asosiysi badiiy psixologizm hodisadir. Badiiy psixologizm keng qamrovli vosita sifatida og'zaki va yozma adabiyot yaratilgan davrdan buyon qo'llaniladi. Badiiy psixologizm termin sifatida lirik va epik janrlarni o'zida umumlashtiradi. Mazkur atama bevosita psixologik sohalar, psixologik tadqiq va tahlil usullari, ruhiy tahlil va tasvir obektlarini o'z ichiga qamrab oladi. Tadqiqotchi olim A. B. Yesin ta'kidlaganidek, "badiiy psixologizm - bu asar personajining xayolot olami, fikrlari, mulohazalarining o'ziga xos badiiy vositalardan foydalangan holda juda to'liq, bat afsil va chuqur ifodalab berish"[6.B.616]. O'zbek adabiyotshunosi E.Xudoyqulov psixologizmni emotsiyonallik va ekspressivlikni ta'minlovchi vositaviy bir tur sifatida ko'rsatadi: "Bu hol qahramonning ruhiy ahvolini ko'rsatishdir. U obrazning oyi, kechinmasi, hayoli orqali ham yuzaga chiqadi"[7.B.138]. Adabiyotning o'ziga xos maxsus turlari sifatida e'tirof etiladigan lirik, epik va dramatik turda badiiy psixologizmning ifoda yo'sinlari birmuncha farqlanadi. Har bir turda qahramonlar, voqealari, psixologik jarayonlarning berilish holati turli. Lirikada psixologizm inson emotsiyonal holatidan tashqari muallifning "men" tasviri ham aniq sezilib turadi. Lirik psixologizm boshqa turlardan farqli ravishda obraz tashqi qiyofasi tasviri, borliqning shakli in'ikosi modelini yaratish orqali ta'sir doirasini kengaytirishidan

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ko‘ra uning ichki olami, uning ichki dunyosida kechayotgan holatlar rakursiga yuqori diqqat qaratish orqali emotsional-ekspressivlikni ta’minlaydi. Buning uchun u mavjud bo‘lgan barcha imkoniyatidan keng foydalanadi. Psixologizm atamasi ruhiy jarayonlar, hissiy tebranishlar, inson inchi dunyosi real qiyofasini tasvirlash nuqtayi nazaridan poeziyada katta mavqe egallaydi.

Nazmda psixologik portret yaratish muhim shartlardan biridir. Lirik asarlarda obrazlarning suratini o‘quvchi ko‘z oldiga gavdalantirish asosiy muddao sanalmaydi, aksincha, undagi biz ko‘rib tasavvur hosil qila oladidan qiyofasi orqali uning tiynati, siyratiga kirib borish, uning ruhiyatidagi sakinat va bo‘hronlarni kitobxonga yuqtirish maqsad qilinadi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, “ijodkor asosiy e’tiborini personaj yoki lirik qahramonning ichki dunyosi, uning his-tuyg‘ulari, fikrlari, kechinmalari, xohish-istiklariga qaratadi”[8.B.517].

Psixologik portret farzand, aka, uka, opa, singlim yoxud boshqa bir shaxs, shu bilan bir qatorda joy, tabiat, makn, zamon, tuzum kabi talay omillar bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Adabiyotlar ro‘yxati :

- 1.Rahimjonov N. Mustaqillik davri o’zbek she’riyati”. Toshkent: Fan nashriyoti, 2007. -B.-4
- 2.Эшонқул Ж. Фольклор: образ ва талқин. Қарши: Насаф нашриёти, 1999. -Б.-5.
- 3.Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish, 2004.-B. -74.
- 4.Навоий асарлари лугати. Тузувчилар Шамсиев П. ва Иброҳимов С. – Тошкент, Ғ.Гулом номидаги Адабюиёт ва санъат нашриёти, 1973. –Б. 258.
- 5.Hamdamov U. Yangi o’zbek she’riyati. Toshkent: Adib nashriyoti, 2012. - B.-9.
- 6.<http://www.litmind.ru/milits-616-1.html> 8. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси.
- 7.E. Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. Iqtisod-Moliya.- B.-138.
- 8.А. Н.Николюкин. Литературная энциклопедия терминов и понятий. Интелвак. Москва, 2001. – С. 517